

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2504,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 143,8 % ni tashkil etdi.
- Transport xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiyligi xizmatlar hajmida 17,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 991,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2504,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (1032,9 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi (441,4 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (297,7 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (163,4 mlrd. so'm) ham oshdi.


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 10,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 69,1% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlar jami sonida xizmat ko`rsatish sohasida faoliyat ko`rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da




2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko`rsatish sohasida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %



2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (112,0 %), Boysun (104,8 %), Jarqurg'on (104,6 %), Qiziriq (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Termiz tumanida (103,3 %), Muzrabod (103,5 %), Sariosiyo (103,5 %), Sherobod (103,7 %), Oltinsoy (103,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surhondaryo viloyati	2504,6	107,6
Termiz sh tumanlar:	1139,5	112,0
Oltinsoy	74,3	103,9
Angor	77,0	104,2
Boysun	62,6	104,8
Muzrabod	59,7	103,5
Denov	402,5	104,3
Jarqurgon	106,9	104,6
Qumqurgon	100,7	104,1
Qiziriq	71,4	104,6
Sariosiyo	96,0	103,5
Termiz	54,8	103,3
Uzun	75,4	103,9
Sherobod	89,5	103,7
Shurchi	94,3	104,4

Hududlar o'rtaida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (1139,5 mlrd.so'm), Denov tumaniga (402,5 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Termiz (54,8 mlrd.so'm), Muzrabod (59,7 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 45,5 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Denov tumani (16,1 %), Jarqurg'on (4,3 %), Qumqurg'on (4,0 %) va Sariosiyo (3,8 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'tasida eng past ulushlar Termiz tumanida (2,2 %), Muzrabod (2,4 %), Boysun (2,5 %), Qiziriq (2,8 %) tumanlariga (3,0 %) to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 991,5 ming.so'mga teng bo'lди. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Termiz shahrida – 7897,1 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 10,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qiziriq tumanida – 431,4 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,0 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha moliyaviy xizmatlar (43,8 %), talim sohasidagi xizmatlar (33,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (26,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (13,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (7,9 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -128,3 %, talim sohasidagi xizmatlar (106,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 110,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 109,1 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 111,5 % ni tashkil etgan.

Surxondaryo viloyati

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'llimi

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84

